

LINGVOPRAGMATIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI YO‘NALISHI SIFATIDA

Rashidova Zulfizar Baxtiyorbek qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

+99897 266-01-97

Tilshunoslik fani asrlar davomida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. XX asrgacha ushbu sohaning asosan grammatika, fonetika, leksikografiya va leksikologiya sohalri ko‘plab tahlillarga tortilgan. Ammo, XX asrga kelib ushbu fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va yana yangi sohalari paydo bo‘la boshladi va ularning ustida ham ko‘plab izlanishlar olib borilqmoqda. Ushbu sohlardan biri “lingvopragmatika” sohasi bo‘lib, tilshunos olimlar yosh izlanuvchilar bu sohaga qiziqish bildirmoqdalar va o‘z ilmiy izlanishlarida tahlillarga tortmoqdalar.

“Pragmatika” yunon tilidan *pragma* (*pragma* – ish, harakat) so‘zidan olingan bo‘lib, semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi hisoblanadi. Bilamizki, nutq jarayonida nafaqat til birliklari, ya’ni so‘z, so‘z birikmalari, turg‘un iboralar va boshqa birikmalar faol muloqotni vujudga keltiradi, balki ular bilan birga muloqot ishtirokchilari – shaxs omili, zamon va makon omili, nutq hosil qiluvchining harakatlari va mimikasi kabi tilshunoslikka oid bo‘lmagan omillar ham so‘zlashuvga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Shu sababli, pragmatika sohasi o‘z maqsad va vazifalariga ega holda lingvistika sohasida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. S.Levinson ta’riflaganidek,: “*Pragmatika lisoniy strukturada ko‘zga tashlanuvchi hamda til va kontekst orasidagi grammatikalashtirilgan (kodlashtirilgan) o‘zaro aloqadorliklarini o‘rganuvchi soha, ... u tildan foydalanuvchilarning jumlar va gaplarni kontekst hosil qilish uchun mos kelgan holda tanlay bilish qobilyatlarini tahlil qiladi*”.¹ Ushbu ta’rifdan shuni anglashimiz mumkinki, pragmatika keng qamrovli soha bo‘lib, bunda biz birgina muloqotda deyksis, propozitsiya, intensiya, nutqiy akt diskurs, muloqot eksplikurasi va imolikturasi, inferensiya kabi tushunchalarning tahlillarini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni so‘zlovchi qay holatda kimga va qay davrda yoyinki qanday kayfiyatda o‘z fikrini tinglovchiga yetkazib berish va hattoki fikriga qanday javob keilishini bilgan holatini pragmatika sohasi o‘z ichiga olar ekan. Biz badiiy adabiyotni o‘qish davomida undagi muloqot holatini so‘zlarni, jumlarini muallif mohirona tanlay olganidan so‘zlashuv qanday salbiy yoki ijobiy, satirik yoki yumor haloatdaligini bilib olishimiz mumkin. Qo‘shimcha qilib shuni sytishimiz mumkinki, biz ayni zamonda ikki yoki undan ortiq shaxslarning so‘zlashuv holatini kuzatar ekanmiz ularning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ular tanlayotgan so‘zlar intonatsiya va propozitsiya orqali bilib olishimiz mumkin va bu pragmatikaning asosi hisoblanadi.

XXI asr tilshunoslaridan Y.Mey va D.Kimning lingvopragmatika sohasi, uning predmeti va boshqa sohalar bilan o‘zaro aloqadorligi haqidagi fikrlari ahamyatlidir. “*Lingvopragmatika (yoki pragmatika) – tilshunoslik va semiotikaning bir sohasi bo‘lib, u kontekstning ma’noga ta’sir qilish holatlari va yo‘llarini o‘rganadi. Pragmatika o‘z ichiga nutqiy akt nazariyasi, muloqotga kirishish jarayoni, suhbatdagi o‘zaro munosabat va nutq holatidagi til bilan bog‘liq boshqa xususiyatlarni qamrab oladi. Mazkur soha tilshunoslik va semiotikadan tashqari falsafa, sotsiologiya va antropologiya bilan ham bog‘liqdir*”.² Olim ushbu fikrida pragmatika jonli muloqot davrida shaxslarning lisoniy nutqiga ta’sir etuvchi har qanday omil aynan

¹ Levinson S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008 – P. 9-24.

² Mey J.L. *Pragmatics: An introduction*. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2001 – P. 148.

lingvopragmatik jihatdan tahlillarga tortiladi. Shuningdek, nafaqat tilshunoslik balki, boshqa ijtimoiy-gumanitar sohalar bilan ham o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. Y.Mey fikrining mantiqiy davomini D.Kimning ushbu fikrida ko‘rish mumkin: *“Aynan lingvopragmatika so‘zlovchining o‘z nutqida til birliklarini tanlashda ikkilanishi muammosini hal qiladiva kontekstdagi holat, joy, vaqt va boshqa omillarning ma‘noga o‘tkazadigan ta‘sirini ko‘rsatib beradi.”*³

O‘zbek tilshunos olimi Sh.Safarov pragmatika sohasini quyidagicha ta‘riflaydi: *“pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo‘lib, uning tadqiqot doirasidagi muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta‘siri masalalari o‘rganiladi. ... Lingvistik tahlilning asosiy g‘oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo‘llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir.”*⁴ Olimning ushbu qarashi lingvistikaning bir sohasi pragmatika ekanligini va uning vazifalari nimada ekanligini ko‘rsatib berdi.

Yuqoridagu fikrlarimizdan shuni anglash mumkunki, lingvopragmatika yoki pragmatika nutqiy faoliyatimizda muloqot davrida o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Ya‘nikim, jonli muoloqtda so‘zlarni, birikmalarni tanlay olish va qo‘llay bilish muloqot ishtirokchilariga ularning ta‘sirini o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
Mey J.L. Pragmatics: An introduction. 2nd ed. – Oxford: Blackwell, 2001.
2. Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Pragmatic Competence //The Modern language Journal Vol.86, №3, 2002.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – T., 2008.

³ Kim D. et al. The Role of an Interactive Book Reading Program in the Development of Second Language Pragmatic Competence //The Modern language Journal Vol.86, №3, 2002. – P. 328-332.

⁴ Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – T., 2008. – B. 78.